

O'zbekiston-Ruminiya: ilmiy hamkorlik to'g'risida kelishuv

2021-yil 22-27-mart kunlari Xorazm Ma'mun akademiyasi raisi Ikrom Abdullayev Ruminiyada ilmiy safarda bo'ldi. Tashrif doirasida Ruminiyaning Kluj Napoka Qishloq xo'jaligi va tibbiy veterinariya universiteti rektori prof. Kornel Katoy bilan ilmiy hamkorlik rivojlantirishga qaratilgan uchrashuv tashkil etildi. Unda ikki tashkilot o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida Kelishuv memorandumi imzolandi.



Kelishuv doirasida olimlar o'rtasida ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va kengaytirish, xalqaro loyihalarni amalga oshirish, hamkorlikda ilmiy maqolalar chop qilish va o'zaro tajribalar almashish ko'zda tutilgan.